

IMOM BUXORIY ASARLARIDAGI AXLOQIY VA DINIY QARASHLARNING FALSAFIY TAHLILI

“Alfraganus university”
nodavlat oliv ta’lim tashkiloti,
Yuldoshev N.I
2-kurs magstranti,

Annotatsiya: ushbu maqolada Imom Buxoriyning hadislar to’plamidagi ilmiy qarashlar falsafiy tahlil qilingan. Xususan, buyuk muhaddis ma’naviy merosining falsafiy dunyoqarashiga axloqiy qarashlarning ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, Muhaddis asarlarida sof Islomiy g’oyalarning inson ilmiy tafakkuriga ta’siri ta’kidlangan. Shu bilan birga, bugungi kunda muhaddislarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati boshqa muhaddislarning asarlari bilan taqqoslanadi. Xususan, buyuk muhaddis hadislaridagi ilmiy g’oyalarning Sharq diniy ta’limotlariga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Buyuk allomalarining ustozи, Imom Buxoriyning ilmiy qarashlari, Imom Buxoriyning diniy qarashlari, Imom Buxoriyning ilmiy qarashlari, hadislar to’plami, al-Jomiy al-sahih, Imom Buxoriyning ilmiy qarashlarida axloqiy qarashlari, Imom Buxoriy asarlarida diniy-falsafiy rivoyatlar

Abstract: In this article, Imam Bukhari’s scientific views in the collection of hadiths are philosophically analyzed. In particular, the influence of moral views on the philosophical worldview of the great muhaddith’s spiritual heritage is revealed. Also, the influence of pure Islamic ideas in the works of Muhaddis on human scientific thinking is highlighted. At the same time, today the importance of social-philosophical views of muhaddis is compared with the works of other muhaddis. In particular, the influence of the scientific ideas in the hadiths of the great Muhaddith on the religious teachings of the East is revealed.

Key words: Master of the Great Scholars, Imam Bukhari’s scientific views, Imam Bukhari’s religious views, Imam Bukhari’s scientific views, Collection of Hadiths, Al-jamee al-sahih, Imam Bukhari’s moral views in his scientific views, religious-philosophical narrations in the works of Imam Bukhari.

Аннотация: В этой статье философский анализ научных взглядов Имама Бухари на сборник хадисов. В частности, раскрывается влияние этических взглядов на философское мировоззрение духовного наследия великого муhammadisa. Также в трудах муhammadisa подчеркивается влияние чисто исламских идей на научное мышление человека. В то же время значение социально-философских взглядов муhammadisов сегодня сопоставимо с трудами других муhammadisов. В частности, раскрывается влияние научных идей в хадисах великого муhammadisa на восточные религиозные учения.

Ключевые слова: наставник великих ученых, научные взгляды Имама Бухари, религиозные взгляды Имама Бухари, научные взгляды Имама Бухари, сборник хадисов, аль-Джами аль-Сахих, этические взгляды Имама Бухари в его научных взглядах, религиозно-философские повествования в трудах Имама Бухари

Markaziy Osiyo falsafasi tarixida “Sahih” yo’nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo’minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo’lgan. U 810-yilning 13-mayida Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan. Shuningdek, allomaning o’zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi. Imom Ismoil al-Buxoriy iste’dodli, o’tkir zehnli hamda ziyrak olim bo’lgan. Manbalarga ko’ra, Bag’dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko’pincha qorong’u kechalari sham yorug’i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o’sha fikrni qog’ozga tushirar, shu tahlitda ba’zan shamni yigirma martagacha o’chirib-yoqar ekan. Imom Buxoriyning hadislar to‘plashga va “Al-Jomi’ as-Sahih”ni yozishga kirishgani borasida turli fikrlar mavjud. Shu bois, “Mazkur asarning yozilish sabablaridan biri Imom Buxoriy hazratlarining ustozи, hadis ilmida mo‘minlarning amiri Is’hoq ibn Rohavayhning so‘zlari deb ko‘rsatilgan, Ibrohim ibn Ma’qal an-Nasafiydan rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriy: “Is’hoq ibn Rohavayh bir kuni: “Qaniydi sizlar Rasululloh (s.a.v.)ning hadislaridan sahihlarini to‘plab bir asar ta’lif etsangizlar,” deb aytadi. Mana shu so‘zlar mening qalbimga qattiq o’rnashib qoldi. Natijada “Al-Jomi’ as-Sahih”ni jamlashga kirishdim”¹.

Imom Buxoriy hadislaridan: Insonlarga yomonlik qilishdan uzoqroq tur. Zero bu o’zinga sadaqadir. Ya’ni boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi odamdir. Islom insonning manman, xudbin bo’lib, faqat o’z manfaatini o’ylab ish tutishni ma’qul ko’rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiylar va hojatbaror bandalarni qadrlaydi².

Qolaversa, Imom Buxoriyning o’tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin: rivoyatlarga ko’ra, u qaysi bir kitobni qo’lga olib, bir marotaba mutoala qilsa, unda bayon etilgan barcha fikrlar, ma’lumotlarni yodda saqlab qolavergan. Imom Ismoil al-Buxoriyning qayd etishicha, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g’ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilgan. Shogirdlaridan Amir ibn Fallos “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma’lum bo’lmagan hadis, albatta ishonchli hadis emasdur”, - deydi. Ustoz Imom Ahmad ibn Xanbal al-Marvaziyning aytishicha, butun Xurosondon Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas. Imom Ismoil al-Buxoriyning o’tkir zehni xususida yana shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat qulqoq solibgina o’tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o’tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: Sen nega hadislarni yozmaysan?, -deb ta’na qilgan vaqtimizda: Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og’zidan yodlab olayotirman, - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarni bir chekkadan yoddan o’qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagagi xatolarni uning yodlaganlaridan tuzatib oladigan bo’ldik”².

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Muqaddima. 1-Juz. –T.: Sharq, 2004.

² 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan). O’zbekiston, NMIU, 2020-yil.

Imom Ismoil al-Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lif oladi. Manbalarda alloma ustozlarining soni to'qson nafarga yaqin bo'lgan deb ko'rsatiladi. Muhammad ibn Yusuf al-G'artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, Ishoq ibn Ibrohim ar-Rahavayh, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali al-Madiniy kabi olimlar uning ustozlari sanaladilar.

Imom Ismoil al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad Iso at-Termiziyy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziyy, Muslim ibn al-Hajjojlarga ustozlik qilgan. Imom Ismoil al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining yetuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o'rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o'zidan esa to'qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan. Jumladan, muhaddis 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadislarni yod olgan.

Darhaqiqat, Imom Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur ilmning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifni qabul etadi va: "Men ilmnin xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin", - deb javob beradi.

Darhaqiqat, alloma yaxshi amallarni har kishi o'zidan oilasi va qarindosh-urug'laridan, so'ngra qo'ni-qo'shnidan boshlashini uqtirib o'tadi. Xususan, "Oltin silsila. Sahihul Buxoriy" kitobida yozilishicha: "Qo'li va tilidan musulmonlar omon bo'lgan kishi(ning amali)degan hadis kiritilgan"³. Imom Ismoil al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning "Al-jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam"), "Al-adab al-mufrad" («Adab durdonalari»), "At-tarix al-kibor" ("Katta tarix"), "At-tarix as-sag'iyr", ("Kichik tarix"), "Al-qiroatu xalfa-l-Imom" ("Imom ortida turib o'qish"), "Vaf'ul-yadini fi-s-saloti" ("Namozda ikki qo'lni ko'tarish") kabi asarlari mavjud bo'lib, ularning qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Ammo "At-tarix al-avsat" ("Orta tarix"), "At-tafsir al-kabir" ("Katta tafsir"), "Al-jome' al-kabir" ("Katta to'plam"), "Kitob-ul-hiba" ("Hadya kitobi") nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan. Shubhasiz, yuqorida nomlari qayd etib o'tilgan asarlarining eng yirigi, shoh asari "Al-jome' as-sahih"dir. Bu asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham dunyoga mashhur. Xususan, 4 jilddan iborat mazkur kitobda payg'ambarimiz Muhammad allayhissalom hadislaridan tashqari, islam huquqshunosligi, islam marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng "sahih" hamda 4000 ta takrorlanmaydigan hadislar kiritilgan⁴. Ushbu kitob Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Islom dini

³ Oltin Silsila: 1-juz. Sahihul Buxoriy. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2016.

⁴ Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 124.

insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi ta’limotdir. Shu sababli Qur’oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ’ib etilgan.

U to’plagan hadislarda: Qarindoshlar ichida yordamga muhtoj muhojirlar bo’lsa, ulardan yordamni ayamaslik kerak. Qarindoshlik rishtasini uzish katta gunohdir. Qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo’lish risqning ko’payishi, hayotning osoyishta, quvonch bilan o’tishi va umrning uzoq bo’lishiga sababdir⁵.

Shu bois, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo’lsa, “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o’rtasida o’zaro munosabatlarni tashkil etish chog’ida amal qilinishi lozim bo’lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada bat afsil ma’lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 ta hadisni o’z ichiga olgan.

Arab tilini mukammal egallagan Imom Buxoriy har bir hadisdagagi so‘zlar va iboralarni diqqat va qunt bilan o’rganib, tekshirib, ularni boshqa hadislardagi variantlari, sinonimlari bilan qiyoslab chiqqan. Shunday sinovdan o’tgan hadislarni u sahih hisoblab, asarlariga kiritgan. “Rivoyat etilishicha, Imom Buxoriy hazratlari ko’pincha, g’usl qilib, ikki rakat namoz o’qib, uyquga yotar ekanlar. Tushlarida Muhammad s.a.v. kelib, “ushbu hadis mendan” desalar, turib, kitoblariga yozar ekanlar”⁶.

Mashhur hadisning roviylari har bir tabaqada kamida uchta bo’lishi talab etiladi. Imom Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” va “Al-Adab al-Mufrad” asarlaridagi sunnat-hadislarning aksariyati ushbu yo’nalishdadir. Masalan, “Al-Jome’ as-Sahih”ning 1-bobidayoq Imom Buxoriy keltiradi: “Urva ibn Zubayr rivoyat qiladilar, u kishi ersa, Oysha onamizdan eshitgan ekanlar: “Horis ibn Hishom roziyallohu anhu rasululloh s.a.v.dan: “Yo, rasululloh, sizga vahiy nechuk kelgusidur?” – deb so‘radi. Rasululloh (s.a.v.): “Menga vahiy ba’zan qo’ng’iroq ovozi yanglig’ kelgusidir. Kuchli vahiy kelganda shunday bo’lg’ay. Shunda men butun borliqni unutgum va vahiy so‘zlarini uqib olgumdir. Ba’zan esa, menga inson qiyofasidagi farishta vahiy keltirg’ay, men uning aytganlarini yodlab olgayman” deb javob qildilar”⁷.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muhaddis to’plagan hadislar islom olamida axloq, odob, ota-onasi va qarindoshlarga yaxshilik qilish kerakligini bilish mumkin. Shuningdek, uning yozib qoldirgan asarlari inson falsafiy tafakkurini diniy va ilmiy jihatdan rivojlanishiga poydevor vazifasini o’taydi.

⁵ Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 143.

⁶ Qobulov N. “Sahihu-l-Buxoriy”ning yozilishi tarixi va uslubi // Imom Buxoriy saboqlari, 2009.

⁷ Qur’oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi. –T.: Cho’lpon, 1992.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Muqaddima. 1-Juz. – T.: Sharq, 2004.
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan). O'zbekiston, NMIU, 2020-yil.
3. Oltin Silsila: 1-juz. Sahihul Buxoriy. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2016.
4. Qobulov N. "Sahihu-l-Buxoriy"ning yozilishi tarixi va uslubi // Imom Buxoriy saboqlari, 2009.
5. Qur'on karim. Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: Cho'lpon, 1992.
6. Sultonov, S. (2023). IMPORTANCE OF PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IN MACHINE LEARNING. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(9), 28-30.
7. Рахманов, А. Т., & Султонов, С. (2023). ОБ ОДНОМ СПОСОБЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧИ КЛАССИФИКАЦИИ. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(9), 45-48.
8. Rajabov, M., Rajabova, X., & Sultonov, S. (2023). MAKIAVELLIAN SHAXSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNI ADABIYOTLARDAGI TA'RIFI. Engineering problems and innovations.
9. Sultonov, S. (2023). MASHINALI O'QITISH TUSHUNCHASI VA MASHINALI O'QITISH JARAYONINING UMUMIY QADAMLARI. Engineering problems and innovations.
- 10.Хайдаров, А., Султонов, С., & Билолов, И. (2022). ВЛИЯНИЕ ОТЖИГА НА РАЗМЕРЫ КРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ЛАМЕЛЕЙ ПОЛИКАПРАМИДА. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 319-321.